Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317608

TALABALARDA MUSTAQIL VA TANQIDIY FIKRLASH KABI QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH

Kuchkarov Muxiddin Umaraliyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori

Jamiyatda har qanday sohaning rivojlanishi, yuksaklikka yo‘nalishi shu soha mutaxassislarining intellektual salohiyati bilan chambarchas bog‘liq. Mutaxassislar ilmiy va amaliy salohiyatga ega bo‘lishlarining dastlabki bosqichiga oliy ta’limda erishadilar. Oliy ta’lim muassasasining nufuzi ham aynan, tayyorlanayotgan kadrlarning sifatliligi ya’ni, zamonaviy bilimlarni o‘zida mujassam qila olganligi, mustaqil fikrga egaligi va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga egaligi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847 sonli farmonida ko‘zda tutilganidek, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish ta’lim tizimining asosiy vazifasidir.

Shunday ekan, oliy ta’limda o‘quv fanlarining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarga mos keluvchi dastur asosida olib borilishi katta ahamiyat kasb etadi. O‘quv fanlarining tushunchalarini iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari, ishlab chiqarish va texnik soha ta’lim yo‘nalishlari, qishloq va suv xo‘jaligi ta’lim yo‘nalishlari, sog‘likni saqlash va ijtimoiy ta’minot ta’lim yo‘nalishlari, hizmatlar sohasi ta’lim yo‘nalishlari xususiyatlaridan kelib chiqib o‘quv dasturlarga kiritish juda muhimdir. Bundan tashqari, har bir sohada mavjud optimizatsiya masalalarida matematik tushunchalardan foydalanishni talabalarga o‘rgatish g‘oyat samarali hisoblanadi.

Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning innovasion texnologiyasi, uning mazmun-mohiyati – talabada ijodiy tashabbus, mustaqil ta’limga extiyoj, o‘zining nazariy tayyorgarlik darajasini oshirish, shuningdek mustaqil faoliyatni rivojlantirishdan iborat. Shuning uchun asosiy vazifani belgilashda yoshlarni bilimga undash, faollikka chaqirish, amaliy faoliyatning har bir turida bilimlarning muhimligini ko‘rsatish va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish muhimdir.

Published: 24.05.2025

Cite this article: Kuchkarov Muxiddin Umaraliyevich (2025). Talabalarda mustaqil va tanqidiy fikrlash kabi qobiliyatlarni rivojlantirish. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317608

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Zamonaviy talablar asosida oliy ta’lim tizimida ta’limning shakli, bosqichi va yo‘nalishidan qat’iy nazar o‘quv rejalaridagi umumiy o‘quv soatlari hajmini saqlab qolgan holda auditoriya o‘quv soatlari hajmi kamaytirilib mustaqil ta’lim uchun belgilangan o‘quv soatlarining miqdori orttirilmoqda.

Talabaning mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarishda ta’lim tamoyillari o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib o‘tish joizdir. Bular ko‘pgina adabiyotlarda ta’lim tamoyillari, ya’ni didaktik tamoyillar deb yuritilib, ular o‘qituvchi va talaba faoliyatiga qo‘yiladigan talablar sifatida izohlanadi va talabalarning mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etishda ilmiy yo‘nalish berishga hizmat qiladi.

Didaktikaning tamoyillari – raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalashda o‘qish va o‘qitish jarayonining xususiyatlari, talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning mustaqil o‘zlashtirilishi ko‘nikma va malakallarini hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarini o‘z ichiga oladi. Shundan kelib chiqib, o‘qitish tamoyillari ta’limning eng muhim masalalaridan biri bo‘lgan talaba mustaqil ta’limini tashkillashtirishning nazariy va amaliy jihatdan to‘g‘ri hal qilishning asosi hisoblanadi.

Didaktik tamoyillar ta’lim jarayonining ikkala sub’yektiga, ya’ni ham o‘qituvchi, ham talabaga aloqador bo‘lib, ta’limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda ularning faoliyatiga qo‘yiladigan talablar hamda qoidalar majmuasidan iboratdir.

Didaktika sohasining darg‘alari uning tamoyillar mohiyatini yoritishda turli nuqtai-nazarlarni asos qilib berishgan.

Didaktika tarixida didaktik tamoyillarni tartibga solish masalasi bilan birinchilardan bo‘lib Ya.A.Komenskiy shug‘ullangan bo‘lib, u o‘zining “Buyuk didaktika” asarining XV-XVIII boblarida amaldagi tamoyillarni asoslab bergan[4].

U yoki bu didaktik hodisaga oid qarashlarni didaktik tamoyillar qatoriga kiritishning o‘ziga xos mezonlari aniqlangan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

Umumiylik tamoyili. O‘quv-tarbiya jarayonining barcha komponentlari, ya’ni ta’limning maqsadi, mazmuni, vositalari, metodlari, tashkiliy shakllari va natijalari bilan uzviy bog‘liqdir.

Masalan. Talabalarning mustaqil ta’lim mazmunini belgilashda ta’limning turli me’yoriy hujjatlarini, ya’ni fan dasturi, darslik, o‘quv qo‘llanmalarining yangi avlodini yaratishda, ta’limning tashkiliy shakllari, vositalari, usullarini tanlashda ushbu tamoyillarga rioya qilinishi shart.

Didaktikaning ilmiylik tamoyili. Mazkur tamoyil ta’lim tizimida o‘rganiladigan oliy matematika fani:

mazmunining ilmiy bo‘lishini;

oliy matematikaning hozirgi ahvoli va uning rivojlanishini ob’yektiv aks ettirishni;

ta’lim mazmuni va uni o‘qitish usullari hozirgi zamon matematika fani saviyasi hamda talablariga mos kelishini ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Ilmiylik tamoyilida tayanch tushuncha va iboralarni ifodalashda ilmiy nuqtai nazardan yondashish talab etiladi.

Masalan, biror tenglamaning yechimlar to‘plamini aniqlashda rasional sonlar to‘plamidan keng bo‘lgan haqiqiy sonlar to‘plami yoki haqiqiy sonlar to‘plamidan keng bo‘lgan kompleks sonlar to‘plami mavjudligini talabalarga ta’kidlab o‘tish mumkin. Bu orqali oliy matematika fanini talabaning kundalik hayotida amaliy qo‘llanilishini ochib berish imkonini yaratadi.

Didaktikaning tarbiyaviylik tamoyili. Mazkur tamoyilga asoslangan holda oliy matematikadan talabaning mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etish talabada:

ziyraklik, topqirlik, aqllilik kabi insoniy xislatlarini;

irodalilik, chidamlilik, sabr-toqatlilik, puxtalik, aniqlik, vatanga muhabbat, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarini;

matematika fanini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish;

mustaqil bilim olish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish va uni yanada rivojlantirish;

matematik tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish orqali matematik tafakkurini shakllantirish;

fazoviy tasavvurlarini kengaytirish orqali xotira va diqqatini rivojlantirish;

ijodiy tafakkurini tarbiyalash kabilarni amalga oshirish imkoniyatlarni oshiradi.

Didaktikaning ko‘rgazmalilik tamoyili. Mazkur tamoyil oliy matematika fanini o‘qitishning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanib, u talabaning tushunchalarni anglangan holda bilimlarni mustaqil egallashlarida muhim o‘rin egallaydi.

Masalan, analitik geometriya modulini o‘qitishda ko‘rgazmalilik tamoyilidan samarali foydalanish talabalarning fazoviy tasavvurlarini, pirovardida mustaqil fikrlashini rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, har bir fanning, jumladan oliy matematika fanini o‘qitishda va talabaning mustaqil ta’limini tashkil etishda qo‘llaniladigan didaktik tamoyillar o‘rgatish va o‘rganishning ilmiy pedagogik qonuniyatlari va amaliy tajribalarini har tomonlama ilmiy-metodik tahlil qilish natijasida aniqlangan asosiy qoidalar bo‘lib, albatta, talaba mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini shakllantirishda foydalaniladi.

Hozirgi axborotlar oqimi kundan-kunga oshib borayotgan bir paytda ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda talabalarning mustaqil ishlariga katta e’tibor bilan qaratish talab etilmoqda. Mustaqil ishlar hozirgi kunda ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida, jumladan, yangi nazariy bilimlarni egallash bosqichida ham keng qo‘llanishini kuzatish mumkin. Mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida “Noan’anaviy ta’lim”, “interaktiv” va zamonaviy ta’lim metodlariga asoslangan holda ta’lim jarayoni va talaba mustaqil ta’limi tashkil etilmoqda.

Axborotlar oqimi tezligi sharoitida ta’lim tizimi bilan zamon talabiga javob beradigan raqobatbardosh kadrlarni ildam tayyorlash muammosi kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo‘lib qoldi. Ma’lumki, an’anaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi yagona sub’yekt sifatida namoyon bo‘lib, talabalar ob’yekt bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tizimda o‘qitish majburiy tarzda amalga oshirilib, unda o‘qituvchi yetakchilik vazifasini bajaradi.

An’anaviy ta’lim metodlari yordamida o‘qitishda talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari shakllansada, lekin malakalarishi rivojlanishi sust kechadi. Natijada ularda mustaqil va tanqidiy fikrlash kabi qobiliyatlar to‘la shakllanmaydi. Bu esa ularda kelgusida mustaqil ish yuritayotganda boqimandalik kayfiyatini rag‘batlantirishga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy ta’lim metodlari asosida talabalarning mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etishda quyidagilarga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Xususan:

talabada o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishga motivatsiyani shakllantirish;

mustaqil fikrlashga bo‘lgan intilishlarni rag‘batlantirish;

ta’lim jarayonini tashkil etishda talabalar mustaqilligi va tashabbuskorligiga tayanish;

talabalarning o‘z-o‘zini boshqarishga keng imkoniyat yaratish;

har bir talabani qobiliyatlari va mustaqil intilishlaridan kelib chiqqan holda shakllantirish (hammaga bir hil bilim berishdan voz kechish);

har bir shaxsning shaxsiy yaxshi xislatlarini izlash va ularni rivojlantirish;

o‘qituvchi “har bir talaba iste’dodli” degan ishonchga ega bo‘lishi, shunga tayangan holda uni hurmat qilish, har bir fikriga e’tibor bilan qarash, unga ishonish;

talabaning har bir yutug‘ini qo‘llab-quvvatlash, ma’qullash, unga xayrixoh bo‘lgan vaziyatlarni yaratish va shular asosida yanada chuqurroq mustaqil holda bilimlarni egallashga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirish;

ta’lim jarayonida har bir talabaga mustaqillik qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatlarini yaratish va unga bu yo‘lida yordam berish.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, ta’lim metodlari o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatlari usullari majmuasi bo‘lib, bu faoliyatlar yordamida yangi bilim, ko‘nikma va malakalarga erishiladi, talabalarning dunyoqarashi shakllantiriladi va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari hamda malakalari rivojlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son Qarori.
2. Tojiyev M. O‘qituvchi faoliyatini loyihalash: Uzluksiz ta’limda modulli texnologiya (Monografiya) //T.:«TURON-IQBOL»,2017. −246 b.
3. Qo‘chqarov M.U. Mustaqil ta’limning turlari va ular asosida oliy matematikani o‘qitish // “Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendirio‘”. – Nukus, 2019. – №5.
4. Yan Amos Komenskiy. Buyuk didaktika //T.: “O‘qituvchi”, 1966.
5. Ahlimirzayev A., Qo‘chqarov M., Zulfixarov I., Ibragimov M. Oliy matematika (2 - qism)/O‘quv qo‘llanma //T.:“Step by step print” 2017
6. Qo‘chqarov M.U., Zulfiqorov I.M., Izetayeva G.K., Opayeva G.A. Oliy matematika fani o‘quv mashg‘ulotlarining loyihalari (Pedagogik texnologiya milliy modelining amaliyotga tatbig‘i) //Toshkent: “TAFAKKUR-BO′STONI”,2011, 240 b.

MAKROIQTISODIY ISHLAB CHIQARISH FUNKSIYALARI ASOSIDA RESPUBLIKADA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI MODELLASHTIRISH.

X.Muydinov
TDIU Andijon fakulteti o‘qituvchisi
Tursunov Ziyodillo
TDIU Andijon fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikada barqaror iqtisodiy o’sishni modellashtirishda makroiqtisodiy ishlab chiqarish funktsiyalarining roli o’rganiladi. Ishlab chiqarish funktsiyalari iqtisodiy o’sishni tahlil qilish va prognoz qilish uchun muhim vosita hisoblanadi. Maqolada Kobb va Duglas va CES kabi asosiy ishlab chiqarish funksiyalari tahlil qilinadi va ularning respublika iqtisodiyoti sharoitlariga moslashuvi ko’rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ishlab chiqarish funksiyalari